

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NUROVA GULNORA NUTFULLOYEVNA

**MINTAQA IQTISODIYOTINI
DIVERSIFIKATSIYALASH VA UNDA TARKIBIY
ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH
YO‘NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Nurova Gulnora Nutfulloyevna

Mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va unda tarkibiy islohotlarni
chuqurlashtirish yoʻnalishlari 3

Нурова Гулнора Нутфуллоевна

Направления диверсификации региональной экономики и углубления в ней
структурных реформ.....27

Nurova Gulnora Nutfulloevna

Directions for diversifying the regional economy and deepening structural
reforms53

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NUROVA GULNORA NUTFULLOYEVNA

**MINTAQA IQTISODIYOTINI
DIVERSIFIKATSIYALASH VA UNDA TARKIBIY
ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH
YO‘NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

BUXORO – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5839 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb- sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ibragimov Nutfillo Salimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boboyev Akmal Choriyevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.08.03 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "10" iyun soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (913 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "26" may kuni tarqatildi.

(2026-yil "28" may dagi 6/26 -raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash raisi, i.f.d., professor

D.Sh.Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

B.N.Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida mamlakatlar hududlarning iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishmoqda. Jumladan, iqtisodiy diversifikatsiya darajasi bo'yicha eng yuqori o'rinni egallagan davlatlar AQSh, Xitoy va Germaniya bo'lib, 2023-yilda eng yaxshi top o'ttizta davlatning yigirma beshtasi rivojlangan, to'rttasi rivojlanayotgan (Xitoy, Meksika, Tayland va Turkiya) va bittasi o'rta daromadli past bo'lgan davlat (Hindiston, jahon miqyosida 30-o'rinda) hisoblanadi¹. Demak, Iqtisodiy Diversifikatsiya Indeksi va aholi jon boshiga YaIM odatda ijobiy korrelyatsion bog'liqlikka ega, biroq neftga qaram bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlar iqtisodiyoti har doim ham yuqori iqtisodiy diversifikatsiya ko'rsatkichlariga erisha olmayotganini qayd etish maqsadga muvofiq.

Jahonda hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, texnik va texnologik modernizatsiyalash orqali raqamli innovatsion iqtisodiyotga o'tish hamda diversifikatsiya jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda hududlarning iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash samaradorligini oshirish, diversifikatsiyaning eng yuqori darajasini ta'minlovchi shartlar va omillarni aniqlash, strategik tarmoqlarning global raqobatbardoshligini mustahkamlash, shuningdek, tarkibiy islohotlarning hudud iqtisodiy qaramligini bartaraf etishga ta'sirini baholash, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash orqali tezkor iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Yangi O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, texnik modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish vositasida iqtisodiyotda samaradorlikning o'sishiga erishish, bunda yuqori qo'shilgan qiymat va mehnat-talab sektorlarga alohida e'tibor qaratish, iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan global raqobatbardoshlik, integratsiyalashuvni kuchaytirishni ta'minlovchi strategik vazifalarga 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va boshqa me'yoriy hujjatlarda yuksak e'tibor qaratilgan². Bu o'z navbatida O'zbekistonning istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xilma-xilligini belgilab berib, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va unda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratidan dalolat beradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

¹ Prasad A., Subramani K., Refass S., Saidi N., Salem F., Shepherd B., Global Economic Diversification Index 2025. Dubai: Mohammed bin Rashid School of Government. Available at www.EconomicDiversification.com.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №-83-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/-5870397>.

28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-sonli “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur soha bo‘yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda sezilarli darajada yordam beradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalashning metodologik asoslari va uni amalga oshirish yo‘nalishlari J.Imbs va R.Wacziarg, D.Ciuriak, C.H.Berry, S.Dhir, G.Altintas, V.Ambrosini va S.Gudergan³ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Yaqin xorij davlatlarida iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish jarayonlarini rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish, ushbu tajribalarni mamlakat sharoitida ijodiy qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish hamda diversifikatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar D.Y.Faikov, D.Y.Baydarov, I.I.Kovyako, D.A.Puzanova, Y.A.Prishshenko, A.O.Grebenkova, A.A.Kofanov⁴ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan O.X.Xamidov, F.T.Egamberdiyev, B.Ro‘zmetov, A.B.Nizamov, E.T.Yakubova, B.N.Navruzzoda, D.Sh.Yavmutov, X.R. Xamroyev, A.A.Sultanov, N.A.Rahmatova, F.M.Raxmatullayeva, D.A.Jalilov va N.Sh.Zokirova⁵ va boshqa iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida hududiy iqtisodiy

³ Jean Imbs & Romain Wacziarg, "Stages of Diversification," American Economic Review, American Economic Association, 2003, vol. 93(1), pages 63-86, March; Ciuriak, Dan, Diversification vs. Specialization in Economic Development: A Comment.; C.H.Berry, Corporate Growth and Diversification. The Journal of Law & Economics, 1971, 14(2), 371–383.; Dhir, S. and Dhir, S. Diversification: Literature Review and Issues†. Strategic Change, 2015, 24: 569-588.; Altintas, G., Ambrosini, V., & Gudergan, S. MNE dynamic capabilities in (un) related diversification. Journal of International Management, 2022; 28(1), 100889.

⁴ Faikov, D. Y., & Baydarov, D. Y. Assessment of opportunities and prospects for diversifying the activities of state corporations in the framework of modern organizational and technological trends (in the case of the nuclear industry). MIR (Modernization. Innovation. Research), 2020, 11(2), 179-195.; И.И.Ковяко, Д.А.Пузанова, Диверсификация энергоносителей в Германии в условиях геополитического кризиса. 2023; Е.А.Прищенко, Влияние различных типов диверсификации на стратегию развития и конкурентные преимущества компании. Мир экономики и управления, 2007, 7(2), 53-61.; О.А.Гребенкова, Диверсификация в агропромышленных формированиях: автореф. дис. ...канд. экон. наук: – Москва, 2007. – 24 с.; А.А.Кофанов, Диверсификация региональной экономики как доминирующая стратегия структурного развития в условиях глобализации экономических отношений: автореф. дис. ... д-ра экон. наук: – Краснодар, 2011. – 33 с.

⁵ O.X.Xamidov va boshqalar. The Problem of Decentralization of Public Power in the Context of Territorial’s

rivojlanish masalalari, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning konseptual asoslari, diversifikatsiyalash jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari va ularning tavsiflanishi tadqiq etilgan. Biroq, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari, diversifikatsiyaning eng yuqori darajasini ta’minlovchi shartlar va omillar, o‘ziga xos xususiyatlari, mamlakatlarning rivojlanish trayektoriyasi U-shakldagi (U-shaped) ixtisoslashuv-diversifikatsiya-ixtisoslashuv jarayonlardan iborat bo‘lishi bilan bog‘liq jihatlarga bag‘ishlangan emperik dalillarga asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va unda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqa iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiyalashning mohiyati va zaruratini tadqiq etish;

diversifikatsiyalash darajasini baholashning uslubiy asoslari o‘rganish;

iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning xorij tajribasi va zaruriy shart-sharoitlarini aniqlash;

hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish xususiyatlari va diversifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy jihatlari tahlilini amalga oshirish;

O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy birliklarida iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiyalashganlik holatini tahlil qilish;

rivojlanishning turli bosqichlarida bo‘lgan xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyalashuv jarayonlari tahlilini amalga oshirish;

hudud iqtisodiyotini diversifikatsiyalashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni samarali tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash;

rivojlanishning keyingi bosqichlarida iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

mintaqa iqtisodiyotining diversifikatsiya darajasi asosida drayver sohalarni belgilash yo‘nalishlarini aniqlash.

Independence. In III International Scientific Congress Society of Ambient Intelligence (pp. 370- 377), 2020.; Ф.Т.Эгамбердиев Совершенствование структуры производства на внутрорегиональном уровне //Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.; Б.Рўзметов, Комплексное развитие региона в условиях углублении экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.; А.А.Низамов, Разработка среднесрочных многовариантных сценариев развития экономической системы региона. Экономика и предпринимательство, (10), 526-529.; Э. Т.Якубова, Особенности специализации и диверсификации промышленности Ташкентской области // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. №Спецвыпуск 4, 137-142.; В.N.Navruz-zoda, Turistik hudud raqobatbardoshligi // Monografiya. – В.: Durdona, 2017. – 156 b., D.Sh.Yavmutov, Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish masalalari. Monografiya. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2024. – 212; X.R.Xamroyev, Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. dissertatsiya avtoreferati – В.:2025. – 35 b.; А.Султанов, Диверсификации деятельности промышленных предприятий: основные результаты производства товаров легкой промышленности. Экономика и инновационные технологии, (5), 133–140.; Н.А.Раҳматова, Миллий иқтисодиёт тармоқ таркибини диверсификациялашнинг жаҳон амалиётидан Ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №10 (158).; Д.А.Джалилов, Н.Ш.Зокирова. Анализ диверсификации отраслей экономики республики Узбекистан // Вестник науки и образования. 2019. №10-4 (64).

Tadqiqot obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi mintaqalari iqtisodiyoti, jumladan Buxoro viloyati iqtisodiyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, guruhlash, ekonometrik tahlil, optimallashtirish va prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi jon boshiga YaIM va YaHM hamda iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyasini aniqlashtirishda hududlar iqtisodiyotining rivojlanish trayektoriyasining ketma-ketligi birlamchi ixtisoslashuvi (IIS - Initial Ineffective Specialisation) – sohalarga xos diversifikatsiya (SSD – Sector-Specific Diversification) – qayta ixtisoslashuv (ERS – Effective ReSpecialization) darajalaridan iborat U-shaklda (U-shaped) bo'lishi asoslangan;

hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyalanganlik darajasini aniqlashda indeks ko'rsatkichlarining korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tahliliga asoslanuvchi Jini indeksi (GINI Index)dan foydalanish maqsadga muvofiqligi hamda uning miqdori O'zbekiston uchun o'rtacha 0,38 ga yetganda hududlar uchun eng maqbul bo'lishi asoslangan;

hududni samarali rivojlantirishning potensial drayverlarini aniqlashda aholi daromadlarining zaruriy miqdori 6 500-7 200 AQSh dollariga yetganda hudud iqtisodiyoti diversifikatsiyasining yuqori darajasi ta'minlanishi asoslangan;

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy islohotlarini chuqurlashtirish va yuqori diversifikatsiya darajasiga erishishning 2025 – 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotining diversifikatsiya darajasi asosida drayver sohalarni belgilash yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

mintaqa iqtisodiyoti tarkibining diversifikatsiyalashganlik darajasini baholashning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan hamda diversifikatsiya darajasining zaruriy shartlari aniqlangan;

mintaqa iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiyalash jarayonlarining zaruriy darajasiga erishish orqali hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, samarali rivojlanishning potensial drayverlarini aniqlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

samarali ixtisoslashuv imkonini beruvchi iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning eng yuqori darajasiga erishish muddati prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), BMT savdo va taraqqiyot tashkiloti (UNCTAD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) rasmiy ma'lumotlar bazasidan

foydalanilganligi, qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga yo'naltirilganligi va ilmiy asoslanganligi, vakolatli tashkilotlarning keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan amaliyotda samarali foydalanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan hududlarning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tarkibiy islohotlar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kompleks dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston savdo-sanoat palatasi va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Global iqtisodiy rivojlanish" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan foydalanish mumkin ekanligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va unda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

aholi jon boshiga $Yal(H)M$ va iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyasini aniqlashtirish yondashuvi keng ko'lamlı statistik ma'lumotlar tahlili asosida hududlar iqtisodiyotining rivojlanish trayektoriyasining birlamchi (samarasiz) ixtisoslashuvi (IIS - Initial Ineffective Specialisation) – tarmoqlarga xos diversifikatsiya (SSD - Sector-Specific Diversification) – (samarali) qayta ixtisoslashuv (ERS – Effective ReSpecialization) ketma-ketligidan iborat U-shakldagi (U-shaped) konsepsiyasi asosida takomillashtirish bo'yicha taklifdan "Mintaqaviy iqtisodiyot" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 68-621 sonli guvohnoma). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish orqali Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalarida mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish trayektoriyasini belgilashda hududning o'z resurslaridan oqilona foydalanish, ichki salohiyatni oshirish va hududlarning drayver sohalarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirishga erishilgan;

hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyalanganlik darajasini aniqlash uslubiyotini hisoblashda qo'llaniladigan indeks ko'rsatkichlarining korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tahlili asosida jini indeksi (GINI Index) imkoniyatlaridan foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish bo'yicha taklifdan "Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 333-378 sonli guvohnoma). Natijada, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

hamda Raqamli iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari talabalarida hududlar iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini aniqlash bo'yicha uslubiy yondashuvlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga erishilgan;

hududni samarali rivojlantirishning potensial drayverlarini aniqlashda aholi daromadlarining zaruriy miqdori 6 500 -7 200 AQSh dollariga yetganda hudud iqtisodiyoti diversifikatsiyasining yuqori darajasi ta'minlanishi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining 10 va 48-maqсадlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 1-noyabrdagi 03-19-12444-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiy hududlar uchun nisbatan samarali drayver soha va faoliyat turlarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi hamda samarali ixtisoslashuv imkoniyatlarini beradi;

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy islohotlarini chuqurlashtirish va yuqori diversifikatsiya darajasiga erishishning 2025 – 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmonining 6-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan Maqsadli Ko'rsatkichlarning 48-maqсад bo'yicha ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 1-noyabrdagi 03-19-12444-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan Buxoro viloyati va O'zbekiston hududlari bo'ylab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 117 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot

natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalashning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida mintaqa iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiyalashning mohiyati va zarurati tadqiq etilgan, diversifikatsiyalash darajasini baholashning uslubiy asoslari o'rganilgan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning xorij tajribasi va zaruriy shart-sharoitlari aniqlangan.

Mintaqa iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiya qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarning mohiyati rivojlanishning ma'lum darajasigacha aholi daromadlari va diversifikatsiya jarayonlari o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'lanish mavjudligi, keyinchalik esa teskari aloqadorlik yuzaga kelishi bilan bog'liq murakkab jarayonlarning amal qilish mexanizmi, mazkur yo'nalishdagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.



1-rasm. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi iqtisodiy diversifikatsiya va ixtisoslashuvning o'zaro almashinuv bosqichlari⁶

Ilmiy adabiyotlar sharhi shundan dalolat bermoqdaki, dunyo mamlakatlarining aksariyati o'zlarining rivojlanish trayektoriyasida iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiya darajasi doimiy o'sib borish xususiyatiga ega emas, balki rivojlanishning ma'lum nuqtasida diversifikatsiyaning eng yuqori darajasiga erishgach, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqib qayta (samarali) ixtisoslashuv jarayonlari sodir bo'ladi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiyalashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy gipoteza shakllantirildi (1-rasm).

Mintaqalar iqtisodiyoti tarkibining diversifikatsiya darajasini hisoblashning Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI), Jini koeffitsienti yoki Jini indeksi (GINI index), Tarmoqlar soni va taqsimoti usuli (Simple Count & Distribution Method), Entropy indeksi (Shannon-Weaver entropy index), RCA (Revealed Comparative Advantage) indeklari asosida baholash, Tarmoqlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlili (Input-Output Analysis) va boshqa shu kabi uslubiy yondashuvlar qiyosiy tadqiq qilindi (1-jadval).

⁶ Muallif ishlanmasi

**Mintaqa iqtisodiyoti diversifikatsiya darajasini hisoblash va baholash
bo'yicha sharh⁷**

No.	Indeks	Tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	HHI	Dastlab monopoliya va bozor konsentratsiyasi darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan, ammo ushbu indeks qo'shilgan qiymatning sohaviy taqsimoti asosida diversifikatsiya darajasini baholashda ham qo'llaniladi	Oddiy va tez hisoblanadi, tushunarli va dinamik tahlil uchun mos	Tarmoqlar soni o'zgarsa, qiymat izohida ehtiyot bo'lish kerak, va tarmoqlar o'rtasidagi bog'liqlikni qisman aks ettiradi
2.	Gini	Dastlab daromad tengsizligini baholash maqsadida ishlab chiqilgan, keyinchalik umumiy taqsimotdagi nomutanosiblikni baholovchi universal ko'rsatkich sifatida iqtisodiyotning turli sohalarida, jumladan, tarmoqlar o'rtasidagi diversifikatsiya darajasini baholashda ham ishlatilgan	Hisoblash sodda, va tushunarli tarmoqlararo farqni aniqlaydi hamda Lorentz egri chizig'i yordamida vizual tasavvur qilish imkonini beradi.	Tarmoqlar tarkibi o'zgarishiga sezgir.
3.	Entropiya Indeksi (Shannon-Entropy Index)	Iqtisodiy faoliyat yoki resurslarning sektorlar bo'yicha qanchalik teng taqsimlangani yoki nomutanosibligi indeks orqali o'lchanadi	Tarmoqlar soni o'zgarishiga moslashuvchan va haqiqiy taqsimotni aks ettiradi.	Hisoblash uchun logarifmik funksiya talab etiladi va ulushlar nolga teng bo'lsa, texnik muammo bo'ladi.
4.	Tarkibiy siljishlar (shift-share analysis)	Aholi daromadlari yoki bandlik darajasi asosida hududlar bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlarining diversifikatsiyalanganlik darajasiga baho beriladi.	Oddiy va tushunarli, tendensiyalarni kuzatish uchun mos va moslashuvchan	Statik yondashuv, tashqi omillarni inkor etadi, ko'plab sohalar yoki hududlar uchun murakkablashadi

Baholash usullarining ushbu qiyosiy tahlillari va baholash indekslarining korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tahlili asosida Jini (GINI) indeksi iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasini baholash uchun asosiy yondashuv sifatida qabul qilindi.

Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash siyosati bevosita diversifikatsiyalashdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Shu nuqtai nazardan iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalashdan maqsadlar turli iqtisodiy shok holatlarida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash (IMF (2021)); yangi bozorlarni egallash, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish va mamlakat to'lov balansini mustahkamlash orqali eksport diversifikatsiyasiga erishish ((World Bank, 2021)); tarmoqlararo resurslar taqsimoti orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash ((Hausmann and Hidalgo, 2014)); hududiy rivojlanishdagi mutanosiblikni ta'minlash (OECD (2014)), ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o'tish (UNCTAD, 2022); xalqaro qiymat zanjorlariga integratsiyalashuvdan (World Bank (2023)) iborat bo'lishi mumkin.

⁷ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash maqsadlari⁸.

Hudud iqtisodiyotining tarmoq tarkibini takomillashtirishga qaratilgan siyosat doirasida boshqa iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun uzoq muddat talab etilishi mumkinligi inobatga olinsa, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining bugungi bosqichida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ishlab chiqarish sohasida innovatsion faoliyat natijasida erishilgan texnologik yutuqlarni birlashtirish, mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish va ularni yanada kengaytirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun esa, amalga oshirilayotgan iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosatga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish muhimdir. Yetakchi xalqaro tashkilotlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarga ko'ra hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidgilar: infratuzilma sifati va mavjudligi; kadrlar salohiyati va demografik tuzilma; mahalliy tadbirkorlik va innovatsion muhit; tabiiy resurslar va geografik joylashuv; davlat siyosati va hududiy boshqaruv sifati; xalqaro investitsiya, savdo aloqalari va hududiy innovatsion klasterlar; ekologik cheklovlar va barqarorlik talablar; ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarning mavjudligi.

Ushbu omillar kompleks shaklda o'zaro bog'liq holda hududlar iqtisodiyotining tarmoqlar diversifikatsiyasi strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish yo'lida olib borilayotgan iqtisodiy siyosiy yondashuvlar va ustuvorliklardan kelib chiqib, AQSh, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani hududi tajribalarini ajratib ko'rsatish mumkin (3-rasm). Bunday guruhlashdan maqsad hududlarda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash yo'lida olib borilayotgan iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini inobatga olish bo'lib, O'zbekiston

⁸ Muallif ishlanmasi

va uning mintaqalari uchun mazkur yo‘nalishdagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hisoblanadi.



3-rasm. Mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalashning xorij tajribasi⁹

Tadqiqot ishining “**Mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash holati va rivojlanish tendensiyalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida hududlar iqtisodiyotini rivojlanishtirish xususiyatlari va diversifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy jihatlari, O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy birliklarida iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining diversifikatsiyalashganlik holati hamda rivojlanishning turli bosqichlarida bo‘lgan xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyalashuv jarayonlari tahlili keltirilgan.

Mamlakat hududlari iqtisodiyotini rivojlanishtirish xususiyatlari va diversifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish nuqtai nazaridan, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich: YaIM kamayish tendensiyasi kuzatilgan davri hisoblangan 1991 – 1995-yillar (2-jadvalning 5-ustuni) sobiq ittifoq davrida shakllangan yagona iqtisodiy tizimdan alohida bo‘lib ajralib chiqishi hamda O‘zbekistonda joylashgan korxonlarning ta‘minotchisi va iste‘molchisi bo‘lgan ko‘plab tarmoq va sohalarning boshqa ittifoq davlatlarida joylashganligi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan chiqish, jumladan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining milliy tizimini qayta shakllantirish, tarmoqlar diversifikatsiyasi va unda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘nalishlarini aniqlab olish, iqtisodiy o‘shish barqarorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratish bosqichi bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich: YaIM dastlabki o‘shishni qayd etgan, biroq aholi jon boshiga YaIM hanuz kamayish tendensiyasini qayd etgan 1996-yildan 2004-yilga qadar bo‘lgan davr (2-jadvalning 5 va 10-ustun) iqtisodiyot tarmoqlarini qayta shakllantirish, turli tarmoq va soha xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlari faoliyatini diversifikatsiyalashda investitsion faollikni qo‘llab-quvvatlash, kichik va o‘rta biznes faoliyatini jonlantirish, ularni texnik va texnologik jihatdan qurollantirish

⁹ Muallif ishlanmasi

orqali tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish, iqtisodiy munosabatlarda raqobat muhitini yaxshilash, mahalliy iste'mol bozori uchun import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish bosqichi sifatida qayd etildi.

Uchinchi bosqich: YaIM o'sish ko'rsatkichlarining barqarorligi ta'minlangan 2005 – 2016-yillar O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, ularni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishni jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorlik ko'rsatkichlarini ko'paytirishda kichik va o'rta biznes vakillari hamda yirik korxonlar o'rtasidagi kooperatsion munosabatlarni jonlantirish, yangi turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirilishini kengaytirish bosqichi hisoblanadi.

2-jadval

1991-2024-yillarda O'zbekiston va Buxoro viloyati iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar ko'rsatkichlarda¹⁰

Yil	YaIM (milliard so'm)		O'zbekistonning YaIM o'sishi, %		Buxoro viloyati YaIM o'sishi, %		1 kishiga YaIM, 2024-yil baholarida	
	Joriy baholarda	2024-yil baholarida	1991-yil 100 %	Oldingi yilga nisbatan, %	1991-yil 100 %	Oldingi yilga nisbatan, %	mln. so'mda	1991-yil 100 %
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1991	0,0615	329258,91	100	99,5	-	-	15,75	100
1992	0,4439	292711,17	88,9	88,9	-	-	13,68	86,8
1993	5,1	285978,81	86,9	97,7	-	-	13,12	83,3
1994	64,9	271107,92	82,3	94,8	-	-	12,16	77,2
1995	302,8	268667,94	81,6	99,1	-	-	11,84	75,1
1996	559,1	273235,30	83,0	101,7	-	-	11,83	75,1
1997	976,8	287443,54	87,3	105,2	-	-	12,18	77,3
1998	1416,2	299803,61	91,1	104,3	-	-	12,49	79,3
1999	2128,7	312695,16	95,0	104,3	-	-	12,87	81,7
2000	3255,6	324577,58	98,6	103,8	-	-	13,25	84,1
2001	4925,3	338209,84	102,7	104,2	-	-	13,63	86,5
2002	7450,2	351738,23	106,8	104	-	-	14,00	88,9
2003	9844	366511,24	111,3	104,2	-	-	14,41	91,5
2004	12261	393633,07	119,6	107,4	-	-	15,31	97,2
2005	15923,4	421187,38	127,9	107	127,9	109,9	16,19	102,7
2010	62388,3	633840,33	192,5	108,5	178,2	109,6	22,64	143,7
2015	221350,9	897464,48	272,6	107,2	263,5	107,5	28,93	183,6
2020	668038	1132108,81	343,8	102,0	326,7	101,8	33,39	211,9
2021	820536,6	1215923,00	369,3	107,4	347,0	106,2	35,18	223,3
2022	995573,1	1284851,45	390,2	105,7	362,2	104,4	36,43	231,2
2023	1204485,4	1365797,09	414,8	106,3	381,0	105,2	37,91	240,7
2024	1454573,9	1454573,90	441,8	106,5	406,2	106,6	39,53	250,9

To'rtinchi bosqich: 2017-yildan boshlab, mamlakatning ikkinchi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev boshchiligida, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlarini yanada erkinlashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yanada takomillashtirish, va Jini indeksi asosida baholash natijalariga ko'ra,

¹⁰ Muallif ishlanmasi (dissertatsiyaning 2.1-2.2-jadvallari asosida tuzildi)

iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilishni jadallashtirishga yo'naltirilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichi boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Iqtisodiyotdagi ushbu tarkibiy o'zgarishlarni quyida taqdim etilgan 2-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya darajasini Jini (GINI) indeksi usulida baholashni asoslash maqsadida O'zbekiston va uning hududlariga tegishli 2010-2024-yillarda erishilgan statistik ko'rsatkichlarni turli usullarda hisoblangan indekslarining korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tuzildi (3-jadval).

3-jadval

Iqtisodiy diversifikatsiya darajasini ifodalovchi indeksning korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi¹¹

	GINI	HHI	VARCOEF	Max-Min	VARLOG
GINI	1				
HHI	0,846	1			
VARCOEF	0,931	0,953	1		
Max-Min	0,877	0,955	0,967	1	
VARLOG	0,726	0,611	0,643	0,621	1

Ushbu korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi ko'rish mumkinki, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining diversifikatsiyalashuv darajasini ifodalovchi barcha indekslar o'zaro yuqori korrelyatsion bog'liqlikka ega. Shuning uchun, tahlillarni barcha uchun tushunarli va ma'lum bo'lgan Jini indeksi asosida davom ettirishga qaror qilindi. Chunki, boshqa indekslar yordamida ham tahlil natijalari hamda iqtisodiy xulosalar mazmunan bir-biriga yaqin bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiyotining jini indeksi asosida hisoblangan diversifikatsiyalashuv darajasi tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2016-yilga qadar va 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiyalashuv jarayonlarini 2017-yildan boshlab yuqori darajaga chiqishiga sabab bo'ldi (4-rasm).


Adabiyotlar sharhidan ma'lumki, hududlar iqtisodiyotining diversifikatsiyalanganlik darajasi bevosita aholi jon boshiga YaIM (YaHM) ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liq.

Ma'lumki, jini indeksi odatda daromadlar taqsimotining aholi o'rtasida tabaqalashganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. 0 va 1 oraliqdagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan jini indeksi birga yaqin qiymat qabul qilsa, daromadlarning aksariyat katta qismi cheklangan sondagi ayni bir shaxslarga tegishli ekanligini bildiradi va tabaqalashuv yuqori ekanligini anglatadi. Va aksincha, jini indeksi nolga yaqin qiymat qabul qilsa, daromadlar aholi o'rtasida imkon qadar teng taqsimlanganligini bildiradi va bunday vaziyatda tabaqalashuv darajasi past bo'ladi.

4-rasmdan ko'rish mumkinki, aholi jon boshiga YaIM hajmi (2024-yil baholarida) 22,94 mln. so'mni tashkil etgan 2011-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibining diversifikatsiya darajasini ko'rsatuvchi indeksi $GINI_{2011}=0,587$ ni tashkil etgan bo'lsa, aholi jon boshiga YaIM hajmi (2024-yil baholarida) mos ravishda

¹¹ Muallif ishlanmasi

30,26 hamda 39,13 mln. so‘m (3 161,7 AQSh dollari¹²) ni tashkil etgan 2017 va 2024-yillarda diversifikatsiya darajasi $GINI_{2017}=0,545$ va $GINI_{2024}=0,492$ koeffitsiyentni tashkil etgan. Demak, 2011-yilga nisbatan 2017-yilda va 2017-yilga nisbatan 2024-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasi yaxshilanib kelmoqda.



Izoh: 2018-yildan boshlab ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan.

4-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiya darajasi (jini indeksi asosida) va aholi jon boshiga YaIM o‘rtasidagi bog‘liqlik¹³


Qayd etish kerakki, alohida viloyatlar kesimida diversifikatsiya darajasi hisoblanganda Respublika darajasidagi olingan natijadan past natija chiqishi, ya'ni jini indeksi nisbatan yuqori chiqishi tabiiy. Chunki, har bir ma'muriy-hududiy birlikning o'ziga xos ixtisoslashuv darajasi mavjud va bu mazkur hudud iqtisodiyoti tarkibining diversifikatsiya darajasini past chiqishiga sabab bo'ladi.

Jumladan, Buxoro viloyati ko'rsatkichlari tahlil qilinganda aholi jon boshiga YaHM 2011-yilda (2024-yil baholarida) 19,51 mln. so'mni tashkil etganida hudud iqtisodiyotining diversifikatsiya darajasi $GINI_{2011}=0,66$ koeffitsiyentni tashkil etgan va bu respublika darajasidan biroz farq qiladi hamda diversifikatsiya darajasini nisbatan past ekanligini ifodalaydi. (5-rasm).

Viloyat YaHMning aholi jon boshiga ulushi 2017 va 2024-yillarda mos ravishda (2024-yil baholarida) 26,59 va 34,73 mln. so'm bo'lganidagi iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiya darasini ifodalovchi indekslar mos ravishda $GINI_{2017}=0,619$ va $GINI_{2024}=0,568$ koeffitsiyentni tashkil etishi shundan dalolat beradiki, Buxoro viloyatida, jumladan O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham samarasiz tarmoqlarga ixtisoslashuv darajasi pasayib, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv jarayonlari kuzatilmoqda.

¹² Jahon bankining ma'lumotlar bazasi, <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD?locations=UZ>.

¹³ Muallif ishlanmasi



Izoh: 2018-yildan boshlab ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan.


5-rasm. Buxoro viloyat iqtisodiyotining diversifikatsiya darajasi (jini indeksi asosida) va aholi jon boshiga YaHM o'rtasidagi bog'liqlik¹⁴

Demak, O'zbekiston va uning ma'muriy-hududiy birliklariga tegishli 2010 – 2024-yillardagi statistik ko'rsatkichlar tahlili aholi jon boshiga YaHM va iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiya darajasi o'rtasida chiziqli to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Biroq dissertatsiyaning nazariy bobida hududlarning iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiya jarayonlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aholi daromadlari va diversifikatsiya jarayonlarining o'zaro U ko'rinishdagi (U-shaped) aloqadorligi mavjudligini tasdiqlovchi ilmiy gipoteza asoslab berildi. Bunday vaziyatda O'zbekistonga tegishli bo'lgan mazkur ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalariga tayangan holda xulosa chiqarilsa, ilmiy xatolikka yo'l qo'yish ehtimoli yuzaga keladi. Shuning uchun, rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lgan (rivojlangan, rivojlanayotgan va h.k.) mamlakatlarga tegishli ma'lumotlar tahlili yuzasidan olinadigan natijalar asosida xulosalar chiqarish hamda shu asosda O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyoti tarmoqlarining istiqboldagi diversifikatsiyalashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy xulosa va qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq. Shunga muvofiq, O'zbekiston istiqbolda erishadigan rivojlanish bosqichidan allaqachon o'tgan mamlakatlarga tegishli statistik ma'lumotlar tahlili mamlakatimiz hududlari uchun rivojlanish islohotlari yo'lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Xorijiy mamlakatlarga tegishli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD - The Organisation for Economic Co-operation and Development) statistik ma'lumotlari asosida turli xorijiy davlatlar iqtisodiyoti (OECD klassifikatsiyasi bo'yicha 20 ta) tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat ulushi asosida diversifikatsiya jarayonlarining Jini indeksi natijalari grafiklari shakllantirildi.

Yuqorida keltirilgan rasmda ifodalangan rivojlangan mamlakatlarga tegishli empirik dalillardan ko'rish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanishning aholi jon boshiga YaIM miqdori 6 000-9 000 AQSh dollari bo'lganda tarmoqlar diversifikatsiyasining eng yuqori bosqichiga erishgan. Undan keyin esa, aholi daromadlarining ortib borishi bilan, qayta ixtisoslashuv, ya'ni diversifikatsiya darajasini pasayib borish holati kuzatilgan (6-rasm).

¹⁴ Muallif ishlanmasi



6-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarining yuqori diversifikatsiya bosqichidan o‘tish davrlari ifodalangan xorijiy mamalakatlar bo‘yicha empirik dalillar¹⁵



7-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarining samarali qayta ixtisoslashuv bosqichidagi davrlari ifodalangan xorijiy mamalakatlar bo‘yicha empirik dalillar¹⁶

Lyuksemburg misolida bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori, ya’ni tarmoqlarning eng yuqori diversifikatsiya darajasi aholi jon boshiga YaIM 11 800 AQSh dollariga yetganda kuzatilgan. Buning asosiy sababi mamlakat bozor ulushining kichikligidir. Chunki kichik bozorlarda diversifikatsiya jarayonlarini to‘laqonli amalga oshirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo‘lmaydi.

¹⁵ Muallif ishlanmasi

¹⁶ Muallif ishlanmasi

7-rasmda esa Iqtisodiyot tarmoqlarining samarali qayta ixtisoslashuv bosqichidagi davrlari ifodalangan xorijiy mamalakatlar bo'yicha empirik dalillar keltirilgan bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiya jarayonlari rivojlanishning ma'lum darajasiga yetgunga qadar davom etadi. Yuqori diversifikatsiya darajasi uchun zaruriy rivojlanish darajasiga erishilgach samarali qayta ixtisoslashuv jarayonlari boshlanadi. Aynan yuqori darajadagi tarmoqlar diversifikatsiya har bir hududning drayver sohalarini belgilash va hududlarning maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini nisbatan mukammal tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash orqali tarkibiy islohotlarni chuquqrlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda hudud iqtisodiyotini diversifikatsiyalashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni samarali tashkil etish imkoniyatlari, rivojlanishning keyingi bosqichlarida iqtisodiyot tarmoqlarini muqobil diversifikatsiyalash ssenariylari, mintaqa iqtisodiyoti tarmoqlarini diversifikatsiya darajasi asosida drayver sohalarni belgilash yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.


